

TALABALARING MEDIA SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

Alimov Zokir Chori o‘g‘li

*Termiz davlat universiteti O‘quv-uslubiy boshqarma
bo‘limida dispetcher, Milliy libos va san’at fakulteti o‘qituvchisi*

Annatatsiya. Mazkur maqolada mediata’limning dolzarb ilmiy-amaliy jixatlari yoritilgan. Talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirish borasida olib borilayotgan tadqiqotlar tahlili yuzasidan nazariy xulosalar, metodik tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so’zlar: mediata’lim, mediasavodxonlik, mediakompetentlik, mediamaxsulot, axborot texnologiyasi, axborot kommunikatsiya vositalari.

Аннотация. В данной статье освещаются современные научные и практические аспекты медиаобразования. Представлены теоретические выводы и методические рекомендации по анализу исследований, проведенных по развитию медиаграмотности студентов.

Ключевые слова: медиаобразования, медиаграмотность, медиакомпетентность, медиапродукт, информационные технологии, информационно-коммукационные технологии.

Anntation. This article highlights the modern scientific and practical of education. The theoretical conclusions and guidelines for the analysis of studies conducted on the development of media literacy of students are presented.

Key words: media education, media literacy, media competence, media product, information technology, information and communication technology.

KIRISH

Zamonaviy axborot texnologiyalari ta’lim tizimiga ham bir-biridan ilg‘or, turli darajadagi keng imkoniyatlarni taqdim qilmoqda. Shulardan biri axborot kommunikatsiya vositalari hamda mediamahsulotlardir. Bu imkoniyatlar pedagogik jarayonlarga ham bevosita va bilvosita tatbiq etilib, ta’lim sifati samaradorligini oshirishga munosib hissa qo’shamoqda. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayoni o’ziga xos murakkab tuzilma. Ta’lim natijadorligi pedagog va talaba-o’quvchi faolliligiga, ta’lim vositalarining mavjudligiga, ta’lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik, mediamahsulotlar mukammalligiga, jamiyatda ilmli, chuqur tafakkurli shaxslarga bo’lgan ehtiyojga va yana boshqa bir qancha omillarga bog‘liq. Xususan, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari ham ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita sanaladi. Ta’lim texnologiyalari doimo axborotlarga asoslangan bo‘lib, ular xilmalixil axborotlarni saqlash, uzatish, foydalanuvchilarga yetkazish bilan chambarchas bog‘liq. Kompyuter texnikasi va kommunikatsiya vositalari paydo bo‘lishi bilan o‘qitish texnologiyalari tubdan o‘zgarganini kuzatamiz. Telekommunikatsiya tizimlari yangi pedagogik va axborot hamda turli sohalardagi kasbiy bilimlarni eng qisqa vaqtida uzatish imkoniyatini beradi. Axborot texnologiyalari rivoji talabalarning mediasa-vodxonligini rivojlantirishni ham taqozo etadi. Media (ommaviy axborot vositalari) mahsulotlardan foydalanish talaba yoshlaning mustaqil ishlash, bo‘s sh vaqtini mazmunli o’tkazishning muhim qismi hisoblanadi. Shu bois mediata’limning yoshlar bilan ishslash jarayoniga integratsiyalashuvi tabiiy holdir. Media insonlar hayoti va ta’lim jarayonida yildan yilga muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Bu holat mediata’limning jadal rivojlanishi masalasining muhimligidan dalolat beradi.

“Rossiya pedagogik ensiklopediya”sida “mediata’lim pedagogikaning maktab o‘quvchilari va talabalar tomonidan ommaviy kommunikatsiya (matbuot, televiniye, radio, kino, video va boshqalar) qonuniyatlarini o’rganishi zarurligini

targ‘ib qiluvchi yo‘nalishi sifatida ta’riflanadi. Mediata’limning asosiy vazifalari: zamonaviy axborot sharoitida yosh avlodni hayotga tayyorlash, turli axborotlarni idrok qilish, uni tushunishga, uning inson ruhiyatiga ta’siri oqibatlarini anglashga, texnika vostalari yordamida muloqotning noverbal shakllarini qo’llay olish usullarini o‘zlashtirishga o‘rgatishdan iboratdir”. Albatta, bunda “o‘quv jarayoni ishtirokchilarini teng huquqli” ekanligini unutmaslik kerak. Eng mashhur mediapedagog va media nazariyotchilaridan biri L.Masterman zamonaviy dunyoda mediata’limning dolzarbliji va ustuvorligining yettita sababini asoslab bergen:

- ✓ Mediadan foydalanishning eng yuqori darajasi va zamonaviy jamiyatning ommaviy axborot vositalariga to‘liqligi.
- ✓ Medianing ideologik muhimligi, uning auditoriya ongiga ta’sir etuvchi sanoat sohasi ekanligi.
- ✓ Mediaaxborotlar ko‘lamining tez sur’atlar bilan oshishi, ularni boshqarish va tarqatish mexanizmlarining kuchayishi.
- ✓ Medianing asosiy demokratik jarayonlar ichiga kirib borish jadalligi.
- ✓ Vizual kommunikatsiya va barcha sohalardagi axborotlar ahamiyatining ortishi.
- ✓ Kelajak talablariga mos holda o‘quvchi talabalarga ta’lim berish.
- ✓ Axborotlarni privatizatsiyalash (xususiy lashtirish) milliy va xalqaro jarayonla- rining ortib borishi.

ASOSIY QISM

Talabalarning mediakompetentligini rivojlantirish masalalari bo‘yicha muhim tadqiqotlar olib borayotgan S.Babadjanov talqinicha, mediata’lim – asosiy qonunlar ni tushunishga yordam beradigan, oddiy yo‘nalishlardagi media axborot tilini

o'rganishga ko'maklashadigan, talabalar badiiy salohiya- tining o'sishiga va rivojlanishiga hissa qo'shadigan, mediamatnlarni qabul qilish, o'r- ganish va malakali tahlil etish ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonidir. Mediata'lim natijasida mediakompetentlik paydo bo'ladi. Mediakompetentlik (media competence) ta'limga kirib kelayotgan yangi atama hisoblanib, u mediamada lumotlarni turli ko'rinishda uzatish va baholash, o'rga- nish, yetkaza bilish kabi ma'nolarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, mediakompetentlik tushunchasi ostida yotadigan bir necha atamalar, jumladan, mediamadaniyat, mediatarg'ibot, mediata'lim, mediaaxborot, axborot madaniyati, mediasavodxonlik kabi atamalarga e'tiborliroq bo'lish barkamol avlodni voyaga yetkazishda alohida o'rin egallaydi. Mediata'limning natijasi auditoriyaning mediasavodxonlik darajasining ko'tarilishi bilan belgilanadi. Mediasavodxonlik mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash bo'yicha ko'nikmalar va malakalar majmuuni bildiradi. Manbalarda mediasavodxonlikning quyidagi tarkibi ko'rsatiladi:

1. Demokratik jamiyatda medianing roli va funksiyalarini tushunish.
2. Media o'z funksiyalarini amalga oshirishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlarni tushunish.
3. Media kontentini uning funksiyalari nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda tanqidiy baholash.
4. Media vositasida o'z fikrini bayon etish va demokratik jarayonlarda ishtirok etish uchun o'zaro hamkorlik qilish.
5. Foydalanuvchi kontentini yaratish uchun kerak bo'ladigan ko'nikmalar (shu jumla- dan, AKT bilan ishlash ko'nikmalari)ni faollashtirish.

Mediasavodxonlik media funksiyalari- ni tushunish, mazkur funksiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va o'z-o'zini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan ratsional hamkorlikka kirishishga urg'u beradi.

Mediasavodxonlik ko‘pqirrali va u bilimlarning rivojlanganlik tuzilmasiga asoslangan keng istiqbolni taqozo etadi. Mediasavodxonlik darajasini butun insonning hayoti davomida bilishga oid, hissiy, estetik va etik mediaaxborotlarni idrok qilish, sharhlash va tahlil qilish jarayonida ko‘ta-rish mumkin. “Mediasavodxonlikning yuqori darajasiga ega auditoriya media olamini tushunish, boshqarish va baholashning yuqori darajasiga ega bo‘ladi”. Mediasavodxonlik insonga “uning idroki va tushunishiga mos bo‘lgan tarixiy cheklangan mazmunlarga javob berish”ga yordam beradi. Bu mediamatnlarni o‘qish va qayta tushunishni, “Buni ko‘rgach, men kim bo‘lib shakllanaman?” savolga javob berishni ta’minlovchi savodxonlikdir. Mediata’lim nazariyasi atrofidagi tadqiqotlar tahlilidan kelib chiqib, mediasavodxonlikning rivojlanish ko‘rsatkichlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- 1) Motivatsion (janrli, tematik, emosional, gnoseologik, gedonistik, psixologik, axloqiy, intellektual, estetik, terapeutik va boshqa mediamatnlar bilan kontaktda bo‘lish motivlari);
- 2) Kontaktli (muloqot tezligi media-madaniyat asarlari va mediamatnlar bilan aloqa o‘rnatish);
- 3) Informatsion (terminologiyani, media- madaniyat nazariyasi va tarixi, ommaviy kommunikatsiya jarayonini bilish);
- 4) Perseptiv (mediamatnlarni idrok qilish qobiliyati);
- 5) Interpretatsion baholovchi (mediайдроk, tanqidiy mustaqillikning muayyan darajasi asosida mediamatnlarni sharhlash, tahlil qilish ko‘nikmasi);
- 6) Amaliyoperatsion (o‘zining media- matnlarini yaratish va tarqatish);
- 7) Kreativ (medianing faoliyat turli jihatlarining ijodiy boshlanishi perseptiv, o‘yin, badiiy, tadqiqotchilik va boshqalar).

Mediata’limiy faoliyatda pedagoglar uchun muhim bo‘lgan kasbiy bilim va

ko‘nikma- larning rivojlanish ko‘rsatkichlari esa quyidagicha belgilanadi:

- 1) Motivatsion (mediata’limiy faoliyat motivlari: emotsiyonal, gnoseologik, gedonis- tik, axloqiy, estetik va boshqalar; mediata’lim sohasida o‘zining bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirishga intilish);
- 2) Informatsion (xabardorlik darajasi, mediata’lim sohasidagi nazariy-pedagogik bilimlar);
- 3) Uslubiy (mediata’lim sohasidagi uslubiy ko‘nikmalar, pedagogik artistizm darajasi);
- 4) faoliyatli (turli tipdagi o‘quv mashg‘ulotlari davomidagi mediata’limiy faoliyat sifati);

Kreativ (mediata’limiy faoliyatdagi boshlang‘ich ijodiy daraja).

Ushbu model Yu.N.Usov tomonidan ishlab chiqilgan optimallik (qulaylik) ko‘rsatkichiga mos keladi (mediamadaniyat haqidagi tizimli bilimlarning rivojlanishi, mediamatnlarni tahlil qilish ko‘nikmasi; ta’lim, rivojlanish, tarbiyaning dialektik birligi; auditoriya kommunikativligini kengaytirish imkoniyatlari; o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘nalganlik).

ADABIYOTLAR TAHLILI

Talabalar mediasavodxonligi rivojlanishi bir necha komponent (tarkibiy qismlar) ga asoslanadi. “Birinchi komponent tajriba. Qanchalik bizda media va real borliq bilan aloqa o‘rnatish tajribasi ko‘p bo‘lsa, shunchalik mediasavodxonlikning yuqori darajada rivojlanishi uchun ko‘proq imkoniyatga ega bo‘linadi. Ikkinchi komponent – media sohasiga ko‘nikmalarni faol jalb etish. Uchinchi komponent yetilish mustaqil ta’lim olishga tayyorlik”.

Dj.Potter tomonidan ilgari surilgan auditoriya mediasavodxonligi rivojlanishi ko‘rsatkichlarining yuqori va quyi darajalari bu boradagi muhim ma’lumotlardan bo‘lib, ulardan kasbiy pedagogik jarayonda ham keng foydalanish yuqori samara

beradi:

Mediasavodxonlik rivojlanishining yuqori darajasi tavsifi:

- Mediamatnning bosh g‘oyasini ajratish;
- Analiz: mediamatnning asosiy elementlarini aniqlash;
- Taqqoslash: mediamatnning o‘xshash va noyob fragment-lavhalalarini topish;
- Mediamatn yoki uning lavhasi qiymatini baholash; muayyan mezonlar asosida taqqoslash orqali xulosa chiqarish;
- Referatlash: mediamatni qisqa, aniq va tushunarli qilib tavsiflash;
- Umumlashtirish;
- Deduksiya: alohida ma’lumotlarni tushuntirish uchun umumiyl tamoyillardan foydalanish;
- Induksiya: alohida ma’lumotlarni kuzatish orqali umumiyl tamoyillarni keltirib chiqarish;
- Sintez: alohida elementlarni qaytadan yangi tuzilmaga yig‘ish.

Mediasavodxonlik rivojlanishining quyi darajasi tavsifi:

- “Kuchsiz intellekt” (muammoni yechish va ijodiy qobiliyatlarning nisbatida), “hamma narsa o‘z vaqtida bo‘lishini” afzal ko‘rish; eng muhim bo‘lgan faktlarnigina eslab qolishga asoslanadigan kuchsiz xotira (masalan, imtihondan oldingi kun kechqurun);
- Tematik qaramlik, xabardagi eng muhim jihatlarni tushuna olmaslik, maslahatchiga, yordamchiga, qo‘llanmaga, o‘rganish bo‘yicha yo‘riqnomaga ehtiyoj;
- Mediamatnlardagi ko‘p ma’nolikka past darajada sabrlilik, ishonchsizlik;
- Xabarlar uchun uncha ko‘p bo‘limgan kategoriylar mavjud bo‘lganda kuchsiz konseptual ixtisoslashuv, odatiy kategoriyalarga mos bo‘limgan yangi xabarlarga salbiy munosabat, yoki medimatnni osonrog‘iga al- mashtirish;

- Qaror qabul qilishda kerak bo‘lgan paytlardagi impulsivlik, aniqlikni boy berish. Media nazariyotchilari va mediapedagoglar ishlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, mediata’lim konsepsiylarida ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanishning tarbiyaviy, ta’limiy va kreativ yondashuvlari muhim ahamiyatga ega. Mediata’limiy yondashuvlarni amalga oshirishning asosiy komponentlarini quyidagicha ajra-tish mumkin:
 - Medianing tarixi, tarkibi, tili va nazariyalari haqida bilimlar olish;
 - Mediamatnlarni idrok qilishni rivojlantirish, uning tilini “o‘qish”, xayolni, ko‘rish xotirasini faollashtirish, tafakkurning (tanqidiy, mantiqiy, ijodiy, obrazli, intuativ) turlarini rivojlantirish, g‘oyalarni anglangan tushunishning (axloqiy, falsafiy, demokratik gumanistik) tamoyillariga asoslanib ko‘nikmalarni shakllantirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Media materiallari asosida kreativ amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish. Har bir pedagog qaysi mediata’limiy nazariyaga asoslanishiga qarab aniq bir modelni tanlashi va uning tayanch komponentlarini turlicha amalga orshirishi mumkin. So‘nggi paytlarda mediatadqiqotchilar va pedagoglarning diqqat e’tibori mediata’limning axloqiy-demokratik jihatlariga qaratilgan. Masalan, zamonaviy mediata’lim harakati- ning yetakchilaridan biri B.Mak Maxonning yozishicha, terrorizm va urushlar davri bo‘lgan XXI asrda yoshlarning mediata’limi demokratik jamiyatning eng muhim talabiga aylandi.

Xorijiy tadqiqotlarda keltirilgan konsepsiylar tahlili bizga g‘arbning asosiy konsepsiylarini zamonaviy moslashtirishning muhim yo‘nalishlari haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Shubhasiz, birorta ham pedagogik konsepsiya boshqa mamlakatning shakllangan an’anaviy ta’lim turiga moslashtirilmagan holda foydalaniishi mumkin emas. Bu g‘arb mediata’limi konsepsiysi mazmunini o‘zlashtirish jarayoniga ham aloqador. Bugungi shiddatkor axborot almashinuvi,

texnika taraqqiyoti media mahsulotlar shakli va mazmunini rang-baranglashtirish, jozibadorlashtirish imkonini kengaytiradi. Shu bois talaba va yoshlarda multimedia va axborot kommunikatsiyalari taqdim etayotgan mahsulotlarni tanlash, saralash, qabul qilish, o'zlashtirish, foydalanish kompetentligini takomillashtirish dolzarb masalaga aylanib qolmoqda. Bu borada pedagog tadqiqotchilardan yanada tezkorlik, talabchanlik, mas'ullik talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Babadjanov S. Pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarining mediakompetenligini rivojlantirish texnologiyasi. Avtoreferat. – T., 2018.
2. Mamatova Ya., Sulaymonova S. O'zbekiston mediata'lism taraqqiyoti yo'lida. –T.: "Extremum-press", 2015.
3. Mediaobrazovaniye. Rossiyskaya pedagogicheskaya ensiklopediya. – M., 1993.
4. Fedorov A.V. Razvitiye mediakompetentnosti i kriticheskogo myshleniya studentov pedagogicheskogo vuza. M.: Informatsiya dlya vsex, 2007.

Potter W.J. Media Literacy. Thousand Oaks. London: Sage Publication, 2001